

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOSHLARNI CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH
HARBIY TAYYORGARLIGINING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12275957>

Ortikov Akmaljon Kobulovich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari

Akademiyasi fakultet boshlig‘i

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich harbiy tayyorgarligining zamonaviy tendentsiyalari hamda yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikdagi ta‘lim-tarbiya va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘nalishlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *dunyo, vatan, harbiy, sadoqat, tadqiqot, o‘quvchi, qoida, asos, destruktiv.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются о современных тенденциях начальной военной подготовки молодежи перед призывом на военную службу в Республике Узбекистан и направлениях воспитания и обучения молодежи в духе военного патриотизма.*

Ключевые слова: *мир, родина, армия, лояльность, исследование, студент, правление, основа, разрушительное.*

Abstract: *This article discusses current trends in the initial military training of youth before conscription for military service in the Republic of Uzbekistan and the directions of educating and training youth in the spirit of military patriotism.*

Keywords: *peace, motherland, army, loyalty, research, student, government, foundation, destructive.*

“Harbiylar bugungi tinch osoyishta, dorilomon, farovon hayotimizning kafolati. Ular bor ekan, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, sarhadlarimiz mustahkam”.

M.Mirziyoyev

Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o‘zgarayotgan, mintaqalar va davlatlar o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy kurashlar tobora keskinlashayotgan bir sharoitda mamlakatimiz yoshlarini, shu jumladan chaqiruv yoshidagi o‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik va harbiy ta‘lim tarbiya ishlari biz uchun yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Vatanparvarlik va ta‘lim-tarbiya yoshlarda fuqarolik burchi, shaxsiy mas‘uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini, faol hayotiy pozitsiya va qat‘iy e‘tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantiradigan qudratli vositadir. Bundan unumli foydalangan holda yoshlarimizda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy imunitetni shakllantirish, dunyo qarashini

oshirish, huquqiy ongini ko'tarish, Ona yurt taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash, ularni o'z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rishimizni taqozo qilmoqda.

Shu munosabat bilan barcha ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari va mahallalardagi chaqiruv yoshidagi uyushgan va uyushmagan yoshlar bilan harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularga malakali harbiy ta'lim-tarbiya berish yo'nalishlaridagi tadbirlarni tizimli tashkil etish, bu ishlarni faollashtirish va yuksak darajaga ko'tarish talab etiladi.

Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgalikdagi ta'lim-tarbiya va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'nalishlarida bir qator ishlar amalga oshirib kelinayotganligiga qaramasdan, hozirda o'quvchi-yoshlar tarbiyasiga bir qancha salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning kuchayib borayotganligi, mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Tadqiqot ishida mamlakatimiz yoshlarining ta'lim va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan tashqi va ichki omillar o'rganib chiqildi.

Rossiyalik olim G.Averyanovning fikricha bugungi kunda o'quvchi-yoshlar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan omillar qatorida Rossiya jamiyati uchun quyidagilar namoyon bo'lmoqda:

- spirtli ichimliklar va giyohvandlikka ruju qo'yganlik;
- destruktiv guruhlarga a'zolik;
- internet;
- tashqi kuchlarning ta'siri.

Davlat tomonidan yoshlarni har taraflama qo'llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning hayotda o'z o'rnini egallashiga ko'maklashish bo'yicha bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilganini albatta e'tirof etishimiz kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.Mirziyoyevning milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va isloh etish borasidagi ma'ruzalari, nutqlari va chiqishlarida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb ahamiyatga ega vazifasi ekanligi alohida e'tirof etilib, mazkur yo'nalishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish va takomillashtirish bo'yicha daxldor vazirlik va idoralarga muhim topshiriqlar belgilab berilmoqda.

Chaqiruvgacha va chaqiruv yoshidagi o'quvchi-yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshirilmoqda:

a) birinchi bosqich (3 — 7 yoshdagilar) atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga turli she'rlar, kuy va qo'shiqlar o'rgatish, multfilm va turli o'yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona-yurtga muhabbatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratiladi:

harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish maqsadida ertak va hikoyalar aytib berish;

ona-vatanga muhabbat, Vatan himoyasi muqaddas burch ekani bilan bog'liq mavzulardagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish;

bolalarning tasavvurini kengaytirishga doir rasmlar chizdirish va jismoniy qobiliyatini mustahkamlash uchun turli musobaqa va tanlovlar tashkil etish, shu orqali ularni ma'naviy rag'batlantirish;

harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi multfilmlar namoyish etish va turli o'yinlar o'tkazish;

harbiy muzeylar va harbiy-vatanparvarlik mavzusi bilan bog'liq madaniyat va istirohat bog'lariga ekskursiyalar uyushtirish.

b) ikkinchi bosqichda (7 — 16 yoshdagilar) o'quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, ona yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ijobiy fikrlarni yanada kengaytirish, harbiy xizmat nufuzini ko'tarish, yoshlarning jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da'vat etish. Bu bosqichda:

zamonamiz qahramonlari haqidagi maqolalar, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida harbiy vatanparvarlik yo'nalishida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, mavzuli kechalar va qo'shiq tanlovlari tashkil etish, spektakllardan lavhalar namoyish qilish;

o'quvchi yoshlar ishtirokida «Vatanimni ko'z qorachig'idek asrayman», «Yurt taqdiri mening taqdirim» mavzularida insholar tanlovini tashkil etish;

sog'lomlashtirish oromgohlarida «Temurbekning izdoshlari», «O'zbekiston farzandlari botir bo'lur» kabi mavzularda sport musobaqalari va tadbirlar tashkil etish;

harbiy vatanparvarlik mavzusida badiiy va hujjatli filmlar, multfilmlar namoyish etish va ularning muhokamasini o'tkazish;

darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarga buyuk sarkardalarimizning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni kiritish, ularning jasorati, fidoyiligi va qahramonliklari to'g'risida yorqin misollar asosida hikoya qilib berish;

Temurbeklar maktablari, oliy harbiy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning maxsus guruhlari va harbiy qismlarga ekskursiyalar tashkil etish;

«Mard o'g'lon» davlat mukofotiga sazovor bo'lgan yurtdoshlarimiz bilan uchrashuvlar o'tkazish, ular erishgan yutuq va natijalarni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida «Temurbek vorislari» harbiy-sport o'yinlarini bosqichma-bosqich tashkil etishga alohida ahamiyat berish.

v) uchinchi bosqich (16 — 18 yoshdagilar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi. Mazkur bosqichda yuqoridagi vazifalarga qo'shimcha ravishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, harbiy xizmatga nisbatan ularning mustaqil fikri va ijobiy qarashlarini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirib borish;

o'quvchi yoshlarning nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarini boyitish maqsadida mudofaa ishlari bo'limlari va harbiy qismlar, o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda turli sermazmun va qiziqarli tadbirlar tashkil etish;

milliy armiyamiz uchun jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmatning ahamiyati, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumot berib borish.

Mudofaa vazirligi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy kengashining hududiy bo'limlari bilan hamkorlikda 2023 - yil davomida 4910dan ortiq tadbirlar o'tkazilgan. Shu jumladan:

- maktabgacha ta'lim muassasalarida 3900 dan ortiq;
- umumiy o'rta ta'lim maktablarida 19500 dan ortiq;
- mahalla va mehnat jamoalarida 2600 dan ortiq, jami 39500 dan ziyod harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga oid tadbirlar o'tkazilgan.

Shu bilan birga, ushbu yilda mamlakatimizning chekka hududlari, mahallalar, istirohat bog'larida yoshlar uchun harbiy vatanparvarlik yo'nalishida harbiy ansambl va harbiy orkestr jamoalarining 130 dan ortiq musiqali chiqishlari, harbiy bo'linmalarning ko'chalar bo'ylab, 110 dan xalqlari tarixi" davlat muzeylarida, hududlardagi Xotira xiyobonlarida o'quvchilar bilan ochiq dars mashg'ulotlari o'tkazildi.

Ta'lim muassasalarida harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar faxriylari ishtirokida 2023- yil 15 yanvar kuni "Mardlik va jasorat" darslari va harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi viktorinalar tashkil etilgan.

Bundan tashqari, "Milliy armiyamiz yoshlarimiz qalbida sadoqat, jasorat, matonat tuyg'ularini mustahkamlovchi hayot maktabidir", "Armiya yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi ramzi", "Tinchligingga jonim fido muqaddas Vatan!", "Milliy armiya bayrami mening bayramim!" shiorlari ostida vatanparvarlik muvzusidagi davra suhbatlari, uchrashuvlar o'tkazish va ularda harbiy vatanparvarlik ruhidagi filmlar va slaydlar namoyishlar hamda teatrlashtirishgan sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Hududlarda harbiy qism va maktablar o'rtasida hamkorlikni tashkil etish va birgalikda tadbirlarni o'tkazish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi barcha harbiy qismga 114 ta maktab, Andijon viloyatidagi harbiy qismlarga maktablar, Buxoro viloyatida harbiy qismlarga barcha maktablar, Jizzax viloyatida harbiy qismga maktablar, Qashqadaryo viloyatida harbiy qismlariga barcha maktablar, Navoiy viloyatida 13 ta harbiy qismga 47 ta maktab, Namangan viloyatida 13 ta harbiy qismga 39 ta maktab,

Samarqand viloyatida 19 ta harbiy qismga 43 ta maktab, Surxondaryo viloyatida 13 ta harbiy qismga 35 ta maktab, Sirdaryo viloyatida 12 ta harbiy qismga 24 ta maktab, Toshkent shahrida 25 ta harbiy qismga 51 ta maktab, Toshkent viloyatida 31 ta harbiy qismga 67 ta maktab, Xorazm viloyatida 5 ta harbiy qismga 12 ta maktab, Farg'ona viloyatida 15 ta harbiy qismga 42 ta maktab biriktirilgan.

Ta'lim muassasasi va harbiy qism o'rtasidagi hamkorlikdagi tadbirlarning ahamiyati to'g'risida Rossiyalik tadqiqotchi V.Solovyov o'z monografiyasida, "kadet maktablari, harbiy-vatanparvarlik klublar, harbiy kutubxona va ofitserlar uylari yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maskani va vositalari hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish keraki bugungi kunda yoshlarda turli og'ishlarni namoyon bo'lishi ko'paygan bir davrda, ularni bajarilayotgan vazifalarini boshqa bir tashkilotlar bajara olmaydi".

Shuni alohida qayd etish kerakki, chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlashdagi ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda ta'lim maskanlari omili ham dolzarb hisoblanadi.

Harbiy-ma'rifiy yo'nalishda o'tkaziladigan tadbirlarda ilm-fan va harbiy fanlarning yutuqlariga tayangan holda treninglar, ta'limiy suhbat va uchrashuvlar, kechalar va ilmiy-amaliy konferentsiyalar o'tkazish dolzarb ahamiyatga ega.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 2018 y., 09/18/140/0816-son.

2. Qo'chqorov I. Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotlari faoliyati qoniqarlimi // O'zbekiston armiyasi jurnali, 2019, № 1 (17). 23b.

3. Аверьянов Г. М. Психолого-педагогические условия подготовки подростков к военной службе: Автореф...дисс. . канд. пед. наук. - Оренбург. 2001. 13с.

4.Ахmadaliyev E. "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiylar va harbiy xizmatga chaqirilayotgan yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar, Vatanga va harbiy xizmatga sadoqat tuyg'usini shakllantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi" ijrosi to'g'risida ma'lumot. – Toshkent. 2019. 3b.

6. Соловьев В.В. Военское воспитание основа подготовки будущих офицеров. - Ставрополь, ФРВИ РВ, 2002. 57с.